

ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH

Sharipova Lobar Rayimjon qizi*TOSHDU‘TAU universiteti**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi*Lobarsharipova2004@gmail.com

Tel: +998938360305

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida animatsiyadan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Animatsiyalar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mavzuni tezroq va osonroq tushunish imkoniyati paydo bo‘lishi ta’kidlangan. SHuningdek, animatsiya yordamida qoidalar, misollar va matnlar yanada jonli va esda qolarli tarzda o‘rgatilishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Maqolada animatsiyadan foydalanish ona tili darslarini zamonaviy va samarali tashkil etishga xizmat qilishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. ona tili darslari, animatsiya, zamonaviy ta’lim, interaktiv metod, o‘quvchi faolligi, dars samaradorligi.

Abstract. This article discusses the importance and effectiveness of using animation in native language lessons. It is emphasized that animations can increase students' interest in the lesson and make it easier and faster to understand the topic. It is also shown that rules, examples, and texts can be taught in a more lively and memorable way with the help of animation. The article presents ideas about how the use of animation can serve as a modern and effective organization of native language lessons.

Keywords. native language lessons, animation, modern education, interactive method, student activity, lesson effectiveness.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность и эффективность использования анимации на уроках родного языка. Подчеркивается, что анимация может повысить интерес учащихся к уроку и облегчить и ускорить понимание темы. Также показано, что правила, примеры и тексты можно преподавать более живым и запоминающимся способом с помощью анимации. В статье представлены идеи о том, как использование анимации может служить современной и эффективной организацией уроков родного языка.

Ключевые слова: уроки родного языка, анимация, современное образование, интерактивный метод, активность учащихся, эффективность урока

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ona tili fanini o'qitishda yangi usul va vositalarni qo'llash o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. An'anaviy dars usullarida faqat og'zaki tushuntirish va darslik bilan ishlash ayrim hollarda yetarli samara bermaydi. Shu sababli on atili darslarida animatsiyadan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ona tili darslarida grammatik qoidalar, so'z turkumlari, gap bo'laklari kabi mavzular nazariy jihatdan murakkab bo'lishi mumkin. O'quvchilar ushbu mavzularni tushunishda qiynaladi va bu ularning darsga bo'lgan qiziqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Animatsiya esa mavzuni jonli va ko'rgazmali tarzda yetkazishga yordam beradi. Animatsiyadan foydalanish orqali o'quvchi mavzuni nafaqat eshitadi, balki ko'rish orqali ham qabul qiladi. Masalan, gap bo'laklari mavzusini o'rganishda so'zlarning gap ichida qanday vazifa bajarishi animatsiya orqali ko'rsatilsa, o'quvchi ushbu tushunchani tezroq anglaydi va uzoq vaqt eslab qoladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi deb o'ylayman. Bunda vizual tushuntirish metodini asosiy metodlardan biri sifatida keltirsak bo'ladi. Bu metodda o'qituvchi mavzuni animatsiya yordamida tushuntirib beradi. Masalan, so'z turkumlari mavzusida ot, sifat va fe'llar alohida animatsiyalar orqali berilib, ularning gapdagi o'rni harakat va ranglar yordamida ko'rsatiladi. Ushbu metodni qo'llash natijasida o'quvchilar mavzuni yanada osonroq tushunishiga va dars jarayoni yanada qiziqarli bo'lishiga yordam berdi. Animatsiya bosqichma-bosqich to'xtatilib, o'qituvchi har bir so'z turkumiga alohida izoh beriladi. Bundan tashqari, visual tushuntirish metodi asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Animatsiya orqali berilgan misollar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Natijada dars jarayoni jonli va samarali kechadi. Ayniqsa, boshlang'ich va o'rta sinflarda bu metod juda samarali hisoblanadi.

Amaliy tajriba jarayonida shuni kuzatish mumkinki, animatsiya qo'llangan darslarda o'quvchilarning faolligi ancha yuqori bo'ladi. O'quvchilar savollarga ko'proq javob berishga harakat qiladi, o'z fikrini erkin bildirib boshlaydi. Oddiy tushuntirishga nisbatan animatsiyali darslarda mavzu tezroq o'zlashtiriladi. Shuningdek, animatsiya o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Dars jarayoni zerikarli emas, balki qiziqarli va tushunarli bo'lib o'tadi. Bu holat o'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi. Vizual tushuntirish metodini qo'llashda o'qituvchining roli juda muhimdir. O'qituvchi animatsiyani faqat yordamchi vosita sifatida ko'rishi lozim. Agar dars faqat animatsiyaga tayanib qolsa, o'qituvchining izohi va tushuntirishi yetarli darajada bo'lmaydi. Shu sababli animatsiya o'qituvchi nutqi bilan uyg'un holda qo'llanilishi kerak. O'qituvchi animatsiyani darsning aniq bir qismida, masalan, yangi mavzuni

tushuntirish yoki mustahkamlash jarayonida qo'llashi maqsadga muvofiq. Bu metoddan foydalanishda me'yorni saqlash dars samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari ona tili darslarini animatsiyadan foydalanib tashkil qilishning bir qator muammolari ham yo'q emas. Jumladan, barcha ta'lim muassasalarida texnik vositalarning yetarli emasligi, o'qituvchilarning animatsion materiallar tayyorlash bo'yicha tajribasining kamligi muammo bo'lib kelmoqda. Shuningdek, animatsiyani me'yoridan ortiq qo'llash ham o'quvchilarning diqqatini asosiy mavzudan chalg'itishi olib kelishi mumkin. Ushbu muammolarning yechimi sifatida animatsiyadan o'rinli va maqsadli foydalanish tavsiya etiladi. O'qituvchi murakkab animatsiyalar o'rniga sodda va tushunarli ko'rgazmali materiallardan foydalansa ham yetarli natijaga erishish mumkin. Bundan tashqari, animatsiya darsning muhim qismida, mavzuni tushuntirish jarayonida qo'llansa, uning samaradorligi oshishiga yordam beradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun animatsiyalar qisqa, aniq va mavzuga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi har bir animatsiyadan so'ng savol-javob o'tkazib, o'quvchilarning tushungan-tushunmaganini aniqlab borishi lozim.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa aytish mumkinki, ona tili darslarida animatsiyadan foydalanish zamonaviy ta'lim talablariga mos keladi. Vizual tushuntirish metodi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, ularni darsga faol jalb qiladi va mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Kelgusida ona tili darslarida animatsiyadan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, o'qituvchilar uchun qisqa animatsion materiallar bazasini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari / o'quv qo'llanma. Muhamedova S.X., Abduliayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. — Toshkent: «Tafakkur bo'stoni», 2018. — 264 b.
2. Adilova Sh., Yuldasheva Sh. Til talimida integrativ yondashuv. o'zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o'qitish texnologiyalari(respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari). - Nukus: Nukus DPI, 2017. - B. 88-90.
3. Muxitdinova X.Til ta'limiga videomateriallar qanday uyg'unlashadi? // Til va adabiyot ta'limi. — 2015. 8-son. — 15-16-b.
4. K. Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, SH.Yo'ldosheva, SH.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. T., Noshir,2009.

Internet saytlari:

1. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/16018>
2. <http://cyberleninka.ru/article/ii/aktualnaya-metodika-interaktivnogo-obucheniya-russkomu-yazyku>
3. <http://multimedia.uz/>